

ARAB ADABIYOTI VA UNING NAMOYONDALARI

Ahmadova Sevinch

*Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti Arab tili
filologiyasi va tillarni o'qitish FTA 02_24 talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab adabiyotining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, asosiy janrlari va har bir davrning mashhur adabiy namoyandalari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, arab adabiyotining jahon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Arab adabiyoti, Johiliya davri, Muallaqot, Abbosiylar davri, Andalus adabiyoti, zamonaviy arab adabiyoti, Mutanabbiy, Nagib Mahfuz, arab she'riyati, maqoma.

Arab adabiyoti va uning namoyandalari. Arab adabiyoti sharq madaniy merosining eng qadamiy va murakkab qatlamlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Adabiyotning dastlabki bosqichi – Johiliya davri- og'zaki she'riyatning yuksak rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bu davrda yaratilgan poetic namunalar arab jamiyatining ijtimoiy tuzilishi, qabila munosabatlari, urf-odatlar va estetik qarashlarini aks ettiradi. Mazkur davrning eng yuksak namunasi sifatida 'Mu'allaqot' to'plami ilmiy adabiyotda alohida o'rin egallaydi.

“Mu'allaqot”- arab adabiyoti tarixida islomdan avvalgi Johiliya she'riyatining eng yuksak namunalarini o'z ichiga olgan mashhur to'plamdir. U odatda yeti yoki o'n shoirning qasidalaridan tuzilgan bo'lib arab adabiyotining 'klassik korpusi' sifatida baholanadi.

“Mu'allaq” so'zi 'osib qo'yilgan she'rlar' ma'nosini anglatadi. Nomining kelib chiqishi esa 'Sandalangan', 'osib qo'yilgan' degan ma'nolarni anglatadigan bu nom to'plamning yuqori qadr topganini bildiradi. Ba'zi rivoyatlarga ko'ra, ushbu she'rlar [Ka'ba devoriga oltin bilan yozib osib qo'yilgan deb hikoya qilinadi.] Ilmiy

adabiyotda esa bu rivoyat ramziy ma'no sifatida ko'tariladi – ya'ni, she'rlarning badiiy jihatdan eng yuqori namunalar qatoriga kirganini anglatadi.

Mu'allaqot quyidagi yirik shoirlarning qasidalaridan iborat;

- 1.Imru'ul-Qays – lirik va muhabbat mavzusidagi she'rlari bilan mashhur.
- 2.Tarafa ibn al-Abd – yoshlik, hayot mazmuni va jasorat mavzulari.
3. Zulhayr ibn Abi Sulma – hikmatli, didaktik yo'nalishdagi poetikasi bilan tanilgan.
- 4.Labid ibn Rabi'a – falsafiy va axloqiy mazmundagi qasidalar muallifi.
- 5.Amr ibn Kulthum – qahramonlik va qabila g'ururi asosiy mavzu sifatida.
- 6.Antara ibn Shaddod – mardlik va muhabbatni uyg'unlashtirgan.
- 7.Al-Haris ibn Hilliza – qabila munosabatlari va siyosiy mavzulardagi qasidalar.

Mu'allaqotning adabiy ahamiyati; Arab tilining gramatik va uslubiy me'yorlarining shakllanishida muhim manba bo'lgan. Johiliya davri mentaliteti, qadriyatlari, ijtimoiy tuzilishini o'rganishda asosiy adabiy-historik manba. Sharq mumtoz she'riyati uchun badiiy maktab vazifasini bajargan. Keyingi arab adabiyoti, jumladan, Abbosiylar davr shoirlar poetikasiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

To'plamni eng mashhur tartibga slogan olimlaridan biri Hammad ar-Roviya bo'lib, u qasidalarni to'plab adabiy muhitga kiritgan. Keyingi musulmon olimlaridan – Ibn Qutayba, Ibn abd Rabbih, Ibn al-Anbariy va boshqalar – Mu'allaqotga ilmiy sharhlar yozishgan.

Arab adabiyotiga qaytsak, bu adabiyot o'z taraqqiyoti davomida qadimgi Johiliya she'riyati, islomiy davr adabiyoti, abbosiylar davri adabiy renessansi, andalus adabiyoti va zamonaviy arab adabiyoti kabi bosqichlarni bosib o'tgan.

Johiliya davri adabiyoti va namoyandalari.

Johiliya davri adabiyoti asosan og'zaki ijodga asoslangan bo'lib, she'riyat, qissa, urush hikoyalari kabi janrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrning mashhur namoyandalari 'Mu'allaqot shoirlari – Imru al-qays, Zuhayr bin Abu Sulma, Antara ibn Shaddod' va boshqalar hisoblanadi.

Johiliya davri adabiyotining asosiy xususiyatlari;

-Og'zaki ijod: Adabiyotning asosiy qismi og'zaki shaklda bo'lgan, ya'ni yozma

manbalar ham bo'lgan.

- She'riyatning ustunligi: She'riyat eng rivojlangan janr bo'lib, qabilaviy urushlar, muhabbat, tabiat tasviri kabi mavzularni qamrab olgan.
- 'Mu'allaqot'lar: Bu davrning eng mashhur adabiy yodgorliklaridan biri bo'lib, yettita buyuk shoirning eng yaxshi asarlaridan tashkil topgan.

Islom davri adabiyoti [arabcha [الادب الاسمي]] – diniy va intellectual xususiyatlari bilan uyg'unlashgan muaulmon xalqlari vakillari tomonidan yaratilgan adabiyotni belgilash uchun ishlatiladigan atama

Atama arab tilidagi, balki fors, turkiy va boshqa tillardagi, so'zlashuvchilari, musulmon sanalgan xalqlarning asarlari o'z ichiga oladi.

Islom adabiyotining asosi Qur'on – musulmonlar uchun muqaddas kitob bo'lib, u nafaqat arablar, balki keyinchalik islomni qabul qilgan boshqa xalq-elatlar uchun ham ilhom bulog'iga aylanadi. Qur'on 'Allohning kalomi' sifatida adabiy nafosatning eng oliy ko'rinishlariga aylanib, butun islom madaniyati va adabiyotining asosiga aylanib, ayniqsa arab adabiyotida o'ziga xos mavqega erishdi.

Namoyandalari: Ka'b ibn Zubayr – 'Borda' qasidasi muallifi.

Abbosiylar davri – Arab adabiyotining oltin asri deyiladi. Abbosiylar davri (750-1258) arab madaniyati va adabiyotining eng buyuk rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda arab tilida yozilgan adabiy asarlar, she'riyat, nasr va ilmiy asarlarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Abbosiylar xalifaligining kengligi va xilma-xilligidan kelib chiqqan holda, arab adabiyoti ushbu davrda keng ko'lamli ijodiy asarlar bilan boyidi. Bag'dod, Abbosiylar davrining markazi sifatida, ilm-fan, adabiyot va madaniyatning eng muhim markazlaridan biriga aylandi.

Abbosiylar davlatining asoschilari Umaviylar sulolasining kuchli raqibi sifatida paydo bo'ldilar. Ularning siyosiy markazi Bag'dod shahriga ko'chirilishi, bu shaharni ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirdi. Bu davrda ko'plab ilmiy muassasalar, kutubxonalar va madrasalar ochildi, bu esa adabiyotning rivojlanishiga xizmat qildi. Arab adabiyotining kuchayishiga sabab bo'lgan omillardan biri, VIII asrning o'rtalarida boshlangan tarjima harakati bo'lib, bu harakat Grek, Rim va

boshqa madaniyatlarning ilmiy asarlarini arab tiliga o'g'irishga qaratilgan edi. Bu jarayon, arab adabiyotini boyitish va ilmiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qildi.

Adabiyotning rivojlanishi rivojlanishi Abbosiylar davrida adabiyot quyidagi yo'nalis rivojlandi:

1. She'riyat: Abbosiylar davrida she'riyat juda mashhur bo'lib, ko'plab shoirlar o'z asarlarini yaratdilar. Abu Nu'vvos, Al-Mutanabhi, Al-Farazdaq kabi mashhur shoirlar o'z ijodlari bilan tanilgan. She'rda sevgi, tabiat, hayot va falsafiy g'oyalar keng o'rin oldi. She'riyat, shuningdek, ijtimoiy masalalarni ko'rsatishga, o'z davrining muammolariga e'tibor qaratishga xizmat qildi.
2. Nasr: Proza va hikoya yozuvi ham rivojlandi. Al-Jahiz, "Tuhfat al-Abrar" asarida o'zining hikoyaviy uslubida yaratgan asarlarida ijtimoiy va madaniy masalalarni ko'tarib chiqdi. Bu davrda ko'plab hikoyalar va romonlar yozildi, bu asarlar inson tabiatini, ijtimoiy munosabatlarni va hayotning murakkabliklarini aks ettirdi.
3. Falsafa va ilm-Fan: Abbosiylar davrida arab adabiyoti ko'plab falsafiy g'oyalarni o'z ichiga oldi. Al-Farobiy, Ibn Sino kabi faylasuflar o'z asarlarida ilm-fan va falsafani birlashtirdilar. Ular, insoniyatning ma'naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishi uchun zarur bo'lgan g'oyalarni ilgari surdilar. Ularning asarlari nafaqat arab adabiyotida, balki butun dunyo falsafasida muhim ahamiyatga ega.
4. Tarjima va izohlar: Greklardan, Rimdan va boshqa madaniyatlardan kelgan ilmiy asarlarning arab tiliga tarjimasini juda muhim bo'ldi. Bu jarayon, arab adabiyotini boyitish va ilmiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qildi. Tarjima ishlarida, Al-Ma'mun kabi abbosiya xalifalari muhim rol o'ynadilar. Ular ilm-fan va adabiyotga katta e'tibor berib, ko'plab ilmiy asarlarni arab tiliga tarjima qilishni buyurdilar.
5. Abbosiylar davrida yaratilgan adabiy asarlar, arab madaniyatining rivojlanishi va boshqa madaniyatlar bilan aloqalarini kuchaytirishga yordam berdi. Bu davrda yozilgan asarlar, arab adabiyoti va madaniyatining rivojiga katta hissa qo'shdi va keyingi avlodlarga ta'sir ko'rsatdi.

Musulmon Andalusida adabiyot she'riyat, musiqa, falsafa va adabiy tanqid uyg'unligida rivojlandi.

Mashhur namoyandalar:

- Ibn Zaydun – o‘ziga xos lirik g‘azal ustasi.
- Wallada bint al-Mustakfi – mashhur shoira, erkin fikr va lirik tuyg‘ular ijodkori.
- Ibn Hazm – “Tavqul-hamama” risolasi muallifi; muhabbat psixologiyasini tahlil qilgan adib.

XIX–XX asrlarda arab dunyosida modernizm, realizm va romantizm yo‘nalishlari shakllandi. Matbuotning rivoji roman janrining keng yoyilishiga sabab bo‘ldi. Asosiy namoyandalar:

- Naguib Mahfouz (Misr) – Nobel mukofoti sohibi, “Qohira trilogiyasi” muallifi.
- Taha Husayn – arab adabiyotshunosligi va modernizm asoschilaridan.
- Gibran Xalil Gibran (Livon) – falsafiy proza shoir, “Payg‘ambar” asari bilan mashhur.
- Mahmud Darvish (Falastin) – zamonaviy arab she‘riyatida erkin ruh va vatanparvarlik timsoli.

Xulosa. Arab adabiyoti ming yillik tarix jarayonida she‘riyat, proza, falsafa va notiqlikning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning yirik namoyandalari jahon adabiy merosi tarkibida muhim o‘rin tutadi. Arab adabiyotining mazmuniy boyligi va badiiy yuksakligi uni bugungi kunda ham tadqiqotchi va adabiyot ixlosmandlari uchun qimmatli manbaga aylantiradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA TIL O‘QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.

2. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРХОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ–ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНING ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.

3. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MO‘JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish*

88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>

4. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: “RISALATUN FIN-NAHV” ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA’LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>

5. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.

6. Turdiyeva, Y. The Phenomenon OF Artistic Style in Uzbek Literature. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 6(12), 22-23.

7. Turdiyeva, Y. Individuality Of The Literary Style (Based On The Novel “People In The Heat” By Luqmon Borikhan). *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(12), 17-18.

8. Jo‘rayeva, M. A. “SHARHI MULLO” A RARE SOURCE.

9. TOSHMATOVA, S. (2024). EXPLORING INDIVIDUAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO ENHANCE MOTIVATION AMONG EFL STUDENTS. *News of the NUUz*, 1(1.10. 1), 208-209.

10. Abdusalomovna, S. M. (2025). ERKIN A’ZAM NASRIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, 17(02), 747-749.

11. АЛИЕВА, Д. ПРОБЛЕМЫ ФОНЕТИКИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *XALQ TA’LIMI*, 91.

12. Kuchkarovich, K. U. (2025). The Practical Interpretation of Artistic Harmony in the Short Stories of Khayriddin Sulton. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 42, 243-245.

13. KUCHKAROVICH, K. (2024). THE INFLUENCE OF EASTERN POETRY ON WESTERN POETRY AND THE CREATION OF ALIGHER DANTE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES Учредители: The USA Journals*, 5(11), 47-54.